O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR



BUXORO – 2021

Ushbu metodik qo‘llanma maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirishda ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga metodik yordam sifatida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

Aslanova Nozima Hakimovna - Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi

G.Sh.Karimova - Buxoro viloyati Maktabgacha ta’lim boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

Taqrizchilar:

G.T.Yadgarova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, ps.f.n

F.M.Qosimov - BuxDU, Pfn, dotsent

So‘z boshi

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori barkamol avlod ta’lim-tarbiyasini sifatli bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bolalarni maktabga sifatli tayyorlash ishlarini tubdan yaxshilash, ularning intellektual, axloqiy–estetik va jismonan rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, tarbiyachi-mutaxassis, pedagoglarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga doir o‘quv reja, dasturlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘qituvchi-tadqiqotchi N. Aslanovaning “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish usullari” metodik tavsiyasi pedagog-tarbiyachilar hamda ota-onalar uchun tayyorlangan bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga matematik tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishda amaliy yordam beradi.

G.T.Yadgarova, ps.f.n

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI DAVLAT TALABLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda Respublikamizda ushbu sohaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan pedagoglar oldida o‘ta muhim, maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga asosan,

bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta’limiga tayyorgarlik darajalari aniqlanishi,ularni oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalash uchun tashkiliy, pedagogik, psixologik va uslubiy manbalar yaratilishi zarurligi qayd etildi. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalarni o‘qitish majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari uchun “Ilm yo‘li” variativ dasturi Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy-metodik kengashining 2019 yil 29 avgust 7-sonli yig‘ilish qarori bilan, maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi o‘quv metodik ishlarni muvofiqlashtiruvchi yig‘ilishining 2019 yil 20 sentabrdagi 1-son bayoni bilan tasdiqlandi va nashrga tavsiya etildi.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi:

- bolaning noyobligi;

- «Men» konsepsiyasi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli;

- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi;

- bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish.



Davlat talablarining tarkibi

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko‘zda tutadi va bola rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish

sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonini rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Bilish jarayonini rivojlantirish sohasi quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

-dunyo haqida bilim va tushuncha berish;

-elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish.

Elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish bilish jarayoning tarkibiga kiradi. Turli yosh xususiyatlari bo‘yicha bolalar quyidagi elementar matematik ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun matematik tasavvurlarni rivojlantirish Davlat talablari sohalarining yo‘nalishlari bo‘yicha bajarilish indikatorlariga binoan, ular miqdorni «bitta», «ko‘p»ga ajrata oladi.

Bu tushunchalarni rivojlantirish uchun bolaga predmetlarning hajmi, og‘irligi va uzunligini ta’riflab borish, bolaga sayr davrida elementar matematik savollar berish (biz qancha zinapoyani bosib o‘tdik?, senda nechta o‘yinchoq bor?) orqali erishiladi. Shuningdek, bolani matematik bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyatga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Ular odatda boshqalarning harakatini

yoki tushib ketgan predmetni kuzatadi, quvonch yoki qoniqish hissini baxsh etuvchi harakat va tovushlarga erishish uchun predmetlar bilan harakatlanadi, harakatlarga taqlid qiladi yoki boshqalar imo-ishorasini takrorlaydi. Ularga **“Menga bitta konfet ber”, “O‘yinchoqlarni savatga sol”, “Koptokni ol”, “Menga bitta piyola olib kel”, “Ikkita pechene ber”** ko‘rsatmalarini berish orqali matematik tushunchalar rivojlantiriladi.

2-3 yoshli bolalar predmetlarni rangi va shakliga qarab farqlaydi, predmetlarni kichigidan kattasiga qarab bir qator qilib joylashtiradi, shakllarni o‘ziga mosini topadi. Bola diqqatini bir-biridan farq qiladigan o‘lchamdagi predmetlar va ularning nomlanishiga qaratish (katta-kichik), predmetlarni shakli bo‘yicha ajratish va nomini to‘g‘ri aytish malakasini shakllanishiga ko‘maklashish (kubik, g‘isht, shar), bolada atrof-olamni amaliy o‘zlashtirish tajribasini ortishiga ko‘maklashish, yotoqxona, mehmonxona, o‘yin xonasi va boshqa xonalarni ajratishga o‘rgatish, bola bilan birgalikda zinapoyalarni, qarsak va boshqalarni sanash orqali ularda matematik tushunchalar rivojlantiriladi. Shuningdek, bola yaqin atrofidagi predmetlarni farqlaydi (o‘yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim, poyafzal, mebel) , ayrim uy va yovvoyi hayvonlarni biladi, ayrim sabzavot va mevalarni farqlaydi, kattalar yordamida qurilmalar quradi, o‘z qurilmasi atrofida o‘yin tashkillashtiradi, predmetlarni tegishli muhitga joylashtirishni biladi. Masalan, jirafni hayvonot bog‘iga, mashinani garajga qo‘yish kerakligini biladi.

Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bolalarga kattalar tomonidan turli savollar bilan murojaat qilish va ko‘rsatmalar berish asosida matematik tasavvurlar rivojlantiriladi. Masalan: **“Ko‘pmi**

yoki kam?”, “Bittasi menga, bittasi senga”, “G‘aroyib xaltacha” o‘yini, “Uchburchaklardan archa yasa”, “Ikkita kubikni ber”, “Sariq koptokni olib kel”. Geometrik shakllarni mustahkamlash uchun “Bu nima?”, “Bu doira”, “Bu uchburchak”, “Bu non, u doira shaklida”, “Bu koptok, koptok aylana shaklida”, “Bu qutti, qutti to‘rtburchak shaklida”... kabi savol va murojaatlar qilinadi.

3-4 yoshli bolalar predmetlarni 1-2 ta belgisi bo‘yicha guruhlarga bo‘ladi, atrof-muhitdan **«bitta»** va **«ko‘p»**ni topadi, predmetlarni kattaligiga qarab teradi, geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uchburchak), shakllar (kub, shar) , ko‘plikni taqqoslaydi, **«uzun»** va **«qisqa»** tushunchalari ma’nosini biladi, **«yarim», «yarimtacha»** tushunchalarni biladi, sanoq va sonlar qatoridagi bog‘liqlikni tushunadi, mexanik tarzda **5 gacha** sanaydi.

Bu yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni mustahkamlash uchun **“Turli o‘lchamdagi doirachalardan qorbobo yasa”, “Kimda sanoq cho‘plar ko‘proq?”, “To‘rtburchaklardan mashina yasa”, “Shaklli koleydoskop” o‘yini, “Hammaga ikkitadan qalam berib chiq”, “Kecha havo qayday edi, bugun-chi?”, “Bitta likopchaga to‘rtta olmani sol”, “Cho‘plar yordamida uchburchak, to‘rtburchaklar yasa”...** kabi savollar va ko‘rsatmalar orqali murojaat qilish maqsadga muvofiq.

4-5 yoshli bolalar geometrik shakllarga o‘xshash predmetlarni topadi, geometrik figura va shakllarni nomini biladi, miqdoriy aloqalarini belgilaydi, sonning miqdoriy tarkibini biladi, matematik tushunchalardan foydalanadi **(ko‘p, kam, jami, shuncha),** ketma ketlikda sanaydi, ko‘pliklarni taqqoslaydi **«ko‘proq», «kamroq», «teng»,** bo‘shliqda yo‘nalish olishni biladi **(oldinda, orqada, tepada,**

pastda, yaqin, uzoq), butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi.

Bu yoshdagi bolalarda matematik bilimlar nafaqat elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘ulotlarida, balki boshqa faoliyatlar: nutq o‘stirish, rasm chizish,turli didaktik o‘yinlar, ochiq havoda sayr, jismoniy mashqlar davomida ham berib boriladi. Shu bilan birga ularga raqamlar va ularning qo‘shnilari, ularning hosil bo‘lishiga doir mashqlar, miqdoriy tushunchalar, fazo va vaqt tushunchalari: **“Birning qo‘shnisini top”, “Ikki kattami yoki to‘rt?”, “O‘yinchoqlar qatoridan birinchi, uchinchi, beshinchi o‘yinchoqlarni olib kel”, “Oltita qalamdan ikkitasini ol”, “O‘yinchoqlarning kattasini javon ustiga, kichkinalarini javonning pastki qismiga joylashtir”, “Kecha kim navbatchi edi?”, “Bugun qanday kun?”, “Haftada necha kun bor?”, “Bog‘chamiz uydan uzoqmi yoki yaqinmi?” , “Safda sendan oldin kim turibdi, sendan keyin-chi?”** mashqlari orqali mustahkamlanadi.

5-6 yoshda bolalar geometrik shakllar bilan tanish bo‘ladilar. Ular geometrik figuralarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi, predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko‘ra taqqoslaydi, predmetlar guruhini taqqoslaydi, muloqot davrida matematik terminologiyani qo‘llaydi, belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda **+, -,** =), 1dan 10gacha bo‘lgan sonlarni to‘g‘ri va teskari sanaydi, predmetlarni soni va sanog‘iga qarab taqqoslaydi, predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir biri bilan taqqoslaydi.

Ularga **“Tasmalarning eng uzuni qaysi”, “Birdan o‘ngancha ketma-ket va teskari sana”, “Stol atrofida necha kishi bor?”,**

“Safda sen nechanchi o‘rinda turibsan?”, “Mening oldimga qadamlaringni sanab kel”, “Sakkiz marta sakra”, “Olti marta o‘ng oyoqda, olti marta chap oyoqda sakra”, “To‘rtburchakdan ikkita uchburchak hosil qil”, “Shakllarni nomla” kabi murojaatlar orqali matematik nutq va ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

6-7 yoshli bolalar uchun matematik tasavvurlar mazmuni birmuncha murakkablashadi. Ular hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi, geometrik shakllar va figuralarni biladi, 20gacha bo‘lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi, 10 gacha qo‘shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda +, -, =), son qatori haqida tushunchaga ega. Shuningdek, ular guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qiladi **(qanchaga ko‘p?, qanchaga kam?),** hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma ket joylashtiradi, shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o‘lchaydi.

Tayyorlov guruh bolalariga ko‘proq ikki amal (qo‘shish va ayirish), sonlarni taqqoslay olish, oddiy shartli masala va misollarni yechishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi. Ular uchun **“Matematik diktant”, “Geometrik diktant”, “Kun va tun” o‘yini, “Oddiy turdagi matematik mantiqiy o‘yinlar”, “Sonlarni taqqoslashga doir misol va masalalar”, “Rasmli rebuslar”, “Ertaklar asosidagi boshqotirmalar”, “Maishiy hayotga oid iqtisodiy muomalaga oid o‘yinlar”, “Raqamlarni nomla va esingda tut”** kabi mashqlar bajarish orqali matematik malaka va ko‘nikmalar rivojlantiriladi. 6-7 yoshli bolalarda matematika mashg‘ulotlarining soatlari kengaytirilgan bo‘lib, ular maktabga tayyorlov bosqichini o‘taydilar. O‘quv yili davomida mashg‘ulotlar 72 soatni, hafta davomida esa 2

soatni, oy davomda 8 soatni tashkil etadi. Matematika mashg‘ulotlari bolalarning yosh xususiyatlariga qarab izchillik bilan o‘zgarib boradi. Bu mashg‘ulotlar bolalarda sodda matematik tushunchalarni o‘zlashtirilishi va o‘zi mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilishi uchun zamin hozirlaydi. Shuningdek, bolada mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanib, matematik tushunchalar ko‘lami kengayib boradi. Tarbiyachi tomonidan faol yo‘lga qo‘yilgan ta’limiy va tarbiyaviy ishlar Davlat talablarining to‘la bajarilishini ta’minlaydi. Bu esa bolalarni maktabga tayyorlab berishning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida **STEAM (S-SUBJECT-fan, T-TECHNOLOGY-texnologiya, E-ENGINEERING-muhandislik, A–ART-can’at, M–MATHEMATICS-matematika)** - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida rivojlantiruvchi markazlar tashkil etilgan.



STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan **AQSh, Yaponiya, Izroil, Singapur, Rossiya**da maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish.

Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘prik va yo‘llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayta sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga

erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. **STEAM** dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo‘rqmaslikka o‘rganadilar. Ko‘pincha, stol atrofida o‘tirmaydi, o‘zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o‘tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do‘stlari bilan muloqot qilish bilan band bo‘lishadi.

Texnik fanlar bo‘yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi **STEAM** ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo‘yicha, qilgan ishni yaxshi ko‘rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir.

STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo‘lib, bolalarning zerikishlariga to‘sqinlik qiladi. Ular vaqt o‘tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko‘priklar, osmono‘par binolarni qurish, elektron o‘yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.

STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat**: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish**. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O‘z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish

ijodkorlik asosi hisoblanadi. Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo‘llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin. Oqilona tashkil etilgan sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag‘bat uyg‘otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari, buning uchun esa ularni doimiy raviщda nazorat qilib borishlari zarur bo‘ladi. Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir.

Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya’ni ularning

aqliy, ijtimoiy va ma’naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni



soddalashtirmasdan va bolani ko‘p axborot bilan chalg‘itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo‘llarini birgalashib qidirishdan iboratdir.

Rivojlanish markazlaridagi ta’lim jarayonida bolalarning o‘zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o‘ylab topadiki, unda barchaga birdek ko‘rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holdaa o‘zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat

bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug‘ilib qolsa topshiriq va materiallarni o‘zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

Respublikamizda **“Ilm yo‘li”** dasturi asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda 6-7 yoshlilarning intellektual imkoniyatlari ularning shaxsiy portfoliosida to‘planib boriladi. Bu bolaning qisqa muddatli guruhga kelganidan tortib ta’limni yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to‘plamidir. Portfoliodan rivojlanishning o‘z-o‘ziga baho berish vositasi foydalanish, unga bolaning o‘z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so‘zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nuqt namunalarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarni, og‘zaki nutqlari yozilgan audiodisklarni tanlab olish mumkin. Bolalar ularga tegishli bo‘lgan portfolio ota-onalarga ko‘rsatilishini bilishi lozim.

2 YOSHGACHA BO‘LGAN BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI



2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun matematik tasavvurlarni rivojlantirish Davlat talablari sohalarining yo‘nalishlari bo‘yicha bajarilish indikatorlariga binoan, ular miqdorni **«bitta», «ko‘p»**ga ajrata oladi.

Bu tushunchalarni rivojlantirish uchun bolaga predmetlarning hajmi, og‘irligi va uzunligini ta’riflab borish, bolaga sayr davomida elementar matematik tasavvurlarni shakllantiruvchi savollar berish (**biz qancha zinapoyani bosib o‘tdik?, senda nechta o‘yinchoq bor?**) orqali erishiladi. Shuningdek, bolani matematik bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyatga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Ular odatda boshqalarning harakatini yoki tushib ketgan predmetni kuzatadi, quvonch yoki qoniqish hissini baxsh etuvchi harakat va

tovushlarga erishish uchun predmetlar vositasida harakatlanadi, harakatlarga taqlid qiladi yoki boshqalarning imo-ishorasini takrorlaydi. Ularga **“Menga bitta konfet ber”, “O‘yinchoqlarni savatga sol”, “Koptokni ol”, “Menga bitta koptokcha olib kel”, “Ikkita pechene ber”** ko‘rsatmalarini berish orqali matematik tushunchalar rivojlantiriladi.

2 ёшгача бўлган болалар

- миқдорни «битта», «кўп»га ажрата олади.

Уларга
“Менга битта конфет бер”,
“Ўйинчоқларни саватга сол”,
“Коптокни ол”, “Менга битта пиёла олиб кел”,
“Иккита печенье бер” кўрсатмалар орқали илк математик тасаввурлар ривожлантирилади.





Ularga nechta degan savol bilan murojaat qilish orqali **“bitta”** va **“ko‘p”** tushunchalari o‘rgatiladi. Masalan: O‘yinchoqlar to‘plamidan bittasini ajratib qo‘yib, **“Bu yerda qancha?”, “Bu yerda-chi?”, “Menga bittasini olib ber-chi”** ko‘rsatmalarini berish juda yaxshi samara beradi. Bunda bola kattalardan eshitgan bitta va ko‘p tushunchalarining mohiyatini anglab boradi. **“Mevalardan bittasini olib ber”, “Bittasi senga, qolgani menga”** murojaatlari orqali **“bitta” va “ko‘p”**ning mazmuni amalda tushuniriladi.



Bolaga **“ko‘p”** va **“kam”** tushunchalarining mohiyatini o‘rgatishda asosan, savollar berish, murojaat qilishdek og‘zaki va amaliy usullar xam kerakli natijani beradi. **“Savatda koptokchalar ko‘pmi yoki kammi?”, “Qaysi stakanda suv kam, qaysisida ko‘p?”, “Barmoqlarimiz ko‘p”, “Sochimiz ko‘p”, “Mening ovqatim ko‘p, seniki kam”** kabi tushunchalar berish **“ko‘p”** va **“kam”** tushunchalarini taqqoslash orqali o‘rgatiladi.

Қутиларга мос қопқоқларни танлаб олади, ўйинчоқлар турадиган жойни топа олади.





Shuningdek, bolalar o‘yinchoq quttisiga qanday qopqoq to‘g‘ri kelishini biladi. Chunki o‘yinchoqlarni yig‘ishtirishda kattalar tomonidan bajarilgan ishlar ularning xotirasida qoladi. Ular ba’zi harakatlarni aynan kattalardek bajaradilar va qayta-qayta shu ishlarni takrorlashga harakat qiladilar. Shu bilan qutti shakliga mos keluvchi shakllarni ham tanlab olishni analiz qila oladilar.









2-3 YOSHLI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI



2-3 yoshli bolalar narsa va buyumlarni rangi va shakliga qarab farqlaydi, predmetlarni kichigidan kattasiga qarab bir qator qilib joylashtiradi, shakllarni o‘ziga mosini topadi. Bola diqqatini bir-biridan farq qiladigan o‘lchamdagi predmetlar va ularning nomlanishiga qaratish (katta-kichik), predmetlarni shakli bo‘yicha ajratish va nomini to‘g‘ri aytish malakasini shakllanishiga ko‘maklashish (kubik, g‘isht, shar), bolada atrof-olamni amaliy o‘zlashtirish tajribasini ortishiga ko‘maklashish, yotoqxona, mehmonxona, o‘yin xonasi va boshqa xonalarni ajratishga o‘rgatish, bola bilan birgalikda zinapoyalarni, qarsak va boshqalarni sanash orqali ularda matematik tushunchalar rivojlantiriladi. Shuningdek, bola yaqin atrofidagi predmetlarni farqlaydi (o‘yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim, poyafzal, mebel), ayrim uy va yovvoyi hayvonlarni biladi, ayrim sabzavot va mevalarni farqlaydi, kattalar yordamida qurilmalar quradi, o‘z qurilmasi atrofida o‘yin tashkil etadi, narsa va buyumlarni tegishli muhitga joylashtirishni biladi. Masalan, jirafni hayvonot bog‘iga, mashinani garajga qo‘yish kerakligini biladi.

Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bolalarga kattalar tomonidan turli savollar bilan murojaat qilish va ko‘rsatmalar berish, oddiy mazmundagi predmetli-didaktik o‘yin-mashqlar yordamida matematik tasavvurlar rivojlantiriladi.

O‘YIN-MASHQLAR

Bu usul bolalarga amaliy yordam beradi. Masalan**:** Tarbiyachi yoki ota-ona bola bilan turli didaktik mashqlardan **“Ko‘pmi yoki kam?”, “Bittasi menga, bittasi senga”, “G‘aroyib xaltacha” didaktik o‘yini, “Geometrik shakllardan yaxlit shakl yasash”, “Oddiy tangrammalardan foydalanish”** usullaridan foydalanishi muxim vazifalarni hal etishda katta ahamiyatga ega.

“KO‘PMI YOKI KAM?” O‘YIN-MASHQI

Bu o‘yin-mashq bolada ko‘p va kamning mohiyatini anglashda va bu tushunchalarni o‘z nutqida qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

O‘yin-mashq qoidasi: Bolaga 2 ta quttida solingan koptokchalar ko‘rsatiladi. Quttilarning birida ko‘proq koptokcha solingan bo‘lib, boladan qaysi ko‘p, qaysida kam ekanligi so‘raladi. Bola savolga to‘g‘ri javob bersa, rag‘batlantiriladi. Navbatdagi galda quttilardan birida 1 ta koptokcha, 2- quttida ko‘proq koptokchalar solinadi va boladan qaysida bitta, qaysi quttida ko‘p koptokchalar borligi so‘raladi.

“G‘AROYIB XALTACHA” DIDAKTIK O‘YINI

Xaltachada turli katta, qichik o‘lchamdagi o‘yinchoqlar solinadi. Boladan 1 ta o‘yinchoqni xaltacha ichidan olish so‘raladi. Bola o‘yinchoqni olgach, undan avval o‘yinchoq nomi, keyin uning o‘lchami, kattami yoki kichikligi so‘raladi. Masalan: Olma- katta, gilos-kichik, Fil-katta, sichqon-kichik,

Bunday taqqoslash orqali bolada predmetlar o‘rtasidagi tafovutni anglash malakalari rivojlanadi.

“GEOMETRIK SHAKLLARDAN YAXLIT SHAKL YASASH” VA “ODDIY TURDAGI TANGRAMLARDAN FOYDALANISH” O‘YIN-MASHQLARI

Bu turdagi o‘yin-mashqlarda bolalar asosan doira, uchburchak va to‘rtburchak kabi geometrik shakllar yordamida namuna asosidagi uy, qorbobo, archa, yuk mashinasi va boshqa shakllarni tayyorlashni o‘rganadilar. Tangrammalarni shakllar bilan to‘ldirish, tangramma ichidan kerakli rangdagi shaklni topib berish, shakllarning katta yoki kichik ekanligi aytish mashqlari bolalarda intellektual anglash malakalari va diqqatning tez fursatda rivojlanishida yordam beradi.



OG‘ZAKI SUHBAT USULIda bolaga **“Ikkita kubikni ber”, “Sariq koptokni olib kel”** singari ko‘rsatmalar, geometrik shakllar to‘g‘risida ma’lumotlar berish va ularni mustahkamlash uchun **“Bu nima?”, “Bu doira”, “Bu uchburchak”, “Bu non, u doira shaklida”, “Bu koptok, koptok aylana shaklida”, “Bu qutti, qutti to‘rtburchak shaklida”, “Quttida nimalar bor?”**... kabi murojaatlar qilinadi.

3-4 YOSHLI BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

3-4 yoshli bolalar predmetlarni 1-2 ta belgisi bo‘yicha guruhlarga bo‘ladi, atrof-muhitdan **«bitta»** va **«ko‘p»** ni topadi, predmetlarni kattaligiga qarab teradi, geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uchburchak), shakllar (kub, shar), ko‘plikni taqqoslaydi**, «uzun» va «qisqa»** tushunchalari ma’nosini biladi, **«yarim», «yarimtacha»** tushunchalarni biladi, sanoq va sonlar qatoridagi bog‘liqlikni tushunadi, mexanik tarzda 5 gacha sanaydi.



Bir nechta geometrik shakllar to‘plamidan ko‘rgazma asosida va o‘z tasavvuri yuzasidan buyum va narsalar tasvirini hosil qila oladi.







Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите к параметрам компьютера.

Bu yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni mustahkamlash uchun **“Turli o‘lchamdagi doirachalardan qorbobo yasash”, “Kimda sanoq cho‘plar ko‘proq?”, “To‘rtburchaklardan mashina yasash”, “Shaklli koleydoskop” o‘yini, “Hammaga ikkitadan narsa berib chiqish”, “Kecha va bugungi ob-havoni taqqoslash”, “Har bir likopchaga to‘rttadan konfet solish”, “Cho‘plar yordamida uchburchak, to‘rtburchaklar yasash”...** kabi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Turli o‘lchamdagi doirachalardan qor odam yasash”

“Kimda sanoq cho‘plar ko‘proq?”

“Bu qanday o‘zgardi?”


Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите к параметра

Ular ba’zi geometrik shakllarni bir-biridan ba’zi belgilari bo‘yicha ajrata oladilar. Kub va sharni bir biridan farqlaydilar.



Turli geometrik shakllardan yaxlit jismlar hosil qila oladilar.



Predmetlarni uzunlik, kenglik va balandlik o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslaydi, fazoda mo‘ljal olishning dastlabki elementlari (tepada, pastda, o‘ng tomonda, chap tomonda)ni farqlaydilar.







Mevalarni qaydaydir geometrik shaklga qiyoslaydilar. **“Bu qayday meva?”, “Shirinmi yoki nordon?”, “Qanday rangda?”,**

“Hididan top”, “Silliqmi yoki dag‘al?”, “Qattiqmi yoki yumshoq?”, “Shakli qanday?”, “Kattami yoki kichik?”,“Nimaga o‘xshaydi?” (koptokka, quyoshga, tuxumga...) kabi murojaatlar orqali sensor tizim ham rivojlantiriladi.


Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите к параметрам компьютера.



5-6 yoshda bolalar geometrik shakllar bilan tanish bo‘ladilar. Ular geometrik figuralarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi, predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko‘ra taqqoslaydi, predmetlar guruhini taqqoslaydi, muloqot davrida

matematik terminlarni qo‘llaydi, belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda **+, -, =),** 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni to‘g‘ri va teskari sanaydi, predmetlarni soni va sanog‘iga qarab taqqoslaydi, predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir biri bilan taqqoslaydi.



Ularga **“Lentalarning eng uzuni qaysi”, “Birdan o‘ngancha ketma-ket va teskari sana”, “Stol atrofida necha kishi bor?”, “Safda sen nechanchi o‘rinda turibsan?”, “Mening oldimga qadamlaringni sanab kel”, “Sakkiz marta sakra”, “Olti marta o‘ng oyoqda, olti marta chap oyoqda sakra”, “To‘rtburchakdan ikkita uchburchak hosil qil”, “Shakllarni nomla”** kabi murojaatlar orqali matematik nutq va ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Активация Windows
компьютера.





Активация Windows
Чтобы активировать Windows, пере

Shuningdek, ular kun va tunning farqini biladi. Kunduzi nimalar qilishi, tunda uxlab dam olishi, kechqurun qanday ko‘rsatuvlar tomosha qilishi haqida so‘zlab beradi. Tunda oy va yulduzlar ko‘rinishini, kunduzi quyosh chiqishini va bog‘chaga kelishi, ota-onasi ishga borishini aytib beradi.



Tartib bilan sanaydi, guruhlarni taqqoslashda **"bitta olib tashlash"** yoki **"bitta qo‘shish"** usulidan foydalanadi va tenglashtiradi.




2
3
4






MENU






6
5
4
3
2
1






square
rectangle
circle
oval
triangle
pentagon
hexagon
octagon
cube
sphere
cylinder
cone
rectangular prism
pyramid

6-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN MATEMATIK TASAVVURLAR MAZMUNI



6-7 yoshli bolalar uchun matematik tasavvurlar mazmuni birmuncha murakkablashadi. Ular hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi, geometrik shakllar va figuralarni biladi, 20 gacha bo‘lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi, 10 gacha qo‘shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda +, -, =), son qatori haqida tushunchaga ega. Shuningdek, ular guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qila oladilar. Predmetning miqdori (qanchaga ko‘p?, qanchaga kam?), hajmi, balandligi va qalinligiga qarab ketma - ket joylashtiradi, shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o‘lchay oladi.



Tayyorlov guruh bolalariga ko‘proq ikki amal (qo‘shish va ayirish), sonlarni taqqoslay olish, oddiy shartli masala va misollarni yechishga doir ko‘nikmalar shakllantiriladi. Ular uchun **“Matematik diktant”, “Geometrik diktant”, “Grafik diktant”, “Kun va tun” o‘yini, “Oddiy turdagi matematik mantiqiy o‘yinlar”, “Sonlarni taqqoslashga doir misol va masalalar”, “Rasmli rebuslar”, “Ertaklar asosidagi boshqotirmalar”, “Maishiy hayotga oid va iqtisodiy muomalaga oid o‘yinlar”, “Raqamlarni nomla va esingda tut”** kabi mashqlar bajarish orqali matematik malaka va ko‘nikmalar rivojlantiriladi.







“Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi

- Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi

- Til va nutq markazi

- Ilm-fan va tabiat markazi

- San’at markazi





Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san’at markazida bir bola qog‘oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog‘ozdan qaychi bilan o‘zi o‘ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar markazida bir bola to‘rtta yog‘och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo‘lakli karton qog‘ozli tasvirni tuzishni ma’qul ko‘radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib



boradi. Ancha vaqtdan so‘ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab

ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam beradi. Bunday yo‘l tutish tufayli bola samarali tarzda rivojlanadi.

Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o‘ynaydilar, mashg‘ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta’minlaydilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar.



Kun tartibi turli mashg‘ulot turlarini o‘zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda, birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg‘ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o‘rganadilar, o‘z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o‘z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, indivdual maqsad qo‘yishi va unga erishishni bilishlari lozim.

Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 6 ta markazlar bo‘lib, ularning har birida izlanish va o‘yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi.



Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan xolda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko‘ra ko‘plab turli narsalarni – o‘yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo‘laklarini qo‘shib qo‘yish mumkin.





Maktabgacha ta’lim sifat va samaradorligini yanada oshirish maqsadida tayyorlov guruhlari uchun **mashg‘ulotlar haftaligi** tashkil

etish mumkin. Bunda mashg‘ulotlar odatdagi tartib bo‘yicha davom etadi. Lekin har bir haftaga nom beriladi.





Masalan: **Matematika haftaligi, Nutq o‘stirish haftaligi, Tabiat haftaligi, Tasviriy faoliyat haftaligi, Badiiy adabiyot haftaligi** kabi. Bu haftaliklar davomida bolalarga matematika, nutq o‘stirish, tabiat, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyotga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish ishlari kuchaytiriladi. Shuningdek, **Matematika haftaligi**da har bir mashg‘ulot matematika bilan, **Nutq o‘stirish haftaligi**da har bir mashg‘ulot nutq o‘stirish mashg‘uloti bilan, **Tabiat haftaligi**da har bir mashg‘ulot tabiat bilan tanishtirish mashg‘uloti bilan, **Tasviriy faoliyat haftaligi**da har bir mashg‘ulot tasviriy faoliyat bilan, **Badiiy adabiyot haftaligi**da har bir mashg‘ulot badiiy adabiyot bilan mujassamlashtirilishi ko‘zda tutiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tayyorlov guruxi bolalarining matematik tasavvurlarini rivojlantirish uchun matematika haftaliklarida shashka musobaqalari, intellektual tadbirlar, guruhlararo musobaqalar

tashkillashtirilishi taklif etiladi. Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo‘lgan qiziquvchanligini rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o‘z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so‘ng, qaysidir ko‘nikmalarga alohida e’tibor berish uchun ishlab chiqiladi. Ota-onalar va oilaning boshqa a’zolari mashg‘ulotlarga kelar ekanlar, ular o‘z farzandlarida ishtiyoqning ortib borayotganligini, intilishning o‘sayotganligin his etadilar va ta’lim jarayoni qanday ketayotganligini, kelajakda bilimli, ijodkor kishilar bo‘lish uchun bolalar qanday o‘zaro muloqot qilayotganliklari, kelishayotganliklari, izlanayotganliklari, tanlayotganliklari va bilim hamda ko‘nikmalarni egallayotganliklarining guvohi bo‘ladilar. Bu ishlarning izchillikda amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim sohasidaning sifat va samaradorligini oshirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarning maktabga har tomonlama tayyor holda kelib bilim olishlari uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018

4. “Ilm yo‘li” 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash variativ dasturi. Toshkent 2019

5. K. Nizomova. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish.” T.: 2006.

6. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllanrirish. Toshkent 1995.

7.Леушина А. И. Формирование элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста.М., 1974

8. Левинова Л. Обучения решению задач в детском саду. М., 1972

9. Ishmuxamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.

10. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz.

11. Maktabgacha ta’lim vazirligi: www.mtv.uz.

12. Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz.

13. «Maktabgacha ta’lim» jurnali: www.jlmt.uz.